

TAXIATOSH GIDROUZELIDAGI GIDROTEXNIK INSHOOTLARINING TEXNIK HOLATI

Ashirov Boyburi Sheraliyevich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“Umumtexnika fanlari” kafedrası assistenti

Anotatsiya: Taxiatosh gidrouzelidagi gidrotexnik inshootlarining hozirgi vaqtdagi texnik holatini aniqlash uchun dala sharoitida tekshirish ishlari olib borildi. Unda texnik hujjatlarning mavjudligi (ekspluatatsiya qilish bo'yicha ko'rsatma, mexanik jihozlardan foydalanish ma'lumotlari, ishchi chizmalar, oldingi tekshirish natijalari qayd qilingan aktlar va boshqa materiallar).

Kalit so'zlar: gidrotexnik, gidrouzel, plitalar, panjara, elektr, amalga oshiriladi, tuproq to'g'on, charxlovchi mashina, suv chikazgich.

Tekshirish o'tkazilgan vaqtda Amudaryoda oqib kelayotgan suv sarfi $Q=506,0$ m³/s ga teng bo'lib, gidrouzel to'g'onidan $Q=400,0$ m³/s suv tashlangan. O'ng qirg'oqdagi suv bo'lgich-ikkilik 64,0 m³/s, Birlashgan kanal etagidagi suv bo'lgichdan 12,0 m³/s suv o'tkazgan.

Gidrouzelda o'tkazilgan tekshirish va zaruriy xujjatlarning mavjudligini tekshirish natijasida quyidagilar aniqlandi:

Tuproq to'g'on- qoniqarli ahvolda ishlab turibdi.

Beton to'g'on:

- barcha oraliklarda ustun bilan tubdagi plitalarning tutashgan joylari turli chuqurlikdagi yoriqlar mavjud;

- 19- prolyot xududida 10x10m o'lchamda plitalar cho'kib qolgan;

- chap qirg'oqda to'g'onning quyi byefidagi tirgak devorda o'rab turuvchi panjara yo'q, devorning etak qismi loyihadagi belgigacha betonlanmagan (1-foto);

- barcha zatvorlarning zichlagichlari buzilgan;

- zatvorlar va ularning qo'zg'olmas qismlarini induksion isitish tizimi ishlaymaydi;

- kabelli chiziqlar, elektr jihozlarning shkaflari o'zlarining resurslarini ishlatib bo'lgan;

- temir yo'lda vagonlar sostavi o'tkazilgan vaqtda barcha konstruksiyalarda kuchli silkinish kuzatiladi;

- 1,3,7 prolyotlar xududida so'ndirgichlarning yuqori sirdi armaturagacha yedirilib, yalong'och xolatga kelib qolgan.

Baliqlarni o'tkazuvchi inshootlar

- baliqlarni charxlovchi mashinaning korpusi buzilgan;

- barcha mexanizmlar zanglagan- korroziyalangan;
- quyi byefdagi tirgak devorning to'voni 1989 yilda yuvilgan, qisman qayta tiklangan, hozirgi vaqtda u yerda suv bo'lganligi munosabati bilan kuzatishning iloji bo'lmadi.

Kemalarni o'tkazuvchi shlyuz

- quyi byefda chap tomondagi qiyalik buzilgan;
- chap kallakdagi ko'tarish mexanizmining zanjiri uzilib ketgan;
- quyi byefdagi tebratuvchi podshipnik yetaklovchi yulduzchasining zanjirli uzatmasi buzilgan;
- suzib yuruvchi ta'mirlash zatvorining extiyot qismlari talon-taroj qilingan.

Chap qirg'oqdagi tindirgich

- tindirgichdan foydalanish faqatgina chap tomondagi kamera orqali amalga oshiriladi;
- o'ng tomondagi kamera to'liq loyqa bilan qoplangan;
- to'rt oyoqli (kozlovoy) kranning qismlari talon-taroj qilingan;
- tindirgich kallagidagi himochlovchi panjara o'rnatilmagan;
- zatvorlar korroziyaga uchragan.

O'ng qirg'oqdagi tindirgich

- Qizketgen kanali eski bosh inshooti quyi byefida tindirgichning o'ng qiyaligi yuvilgan;
- tindirgichdan foydalanish faqatgina chap tomondagi kamera orqali amalga oshiriladi;
- o'ng tomondagi kamera to'liq loyqa bilan qoplangan;
- oqiziqnlarni Zemsnaryadlar yordamida tozalanmaydi.

Qizketgen kanali bosh inshooti(eskisi)

- inshootdan 75 yildan ko'proq vaqt davomida foydalaniladi, natijada u to'liq ishchi xolatini yo'qotgan.

Taxiatosh GRESi va Taxiatosh shaxrini suv bilan ta'minlash uchun suv chikazgich

- inshootning metaldan yasalgan konstruksiyalari korroziyalangan;
- shandorlar yo'q;
- ko'taruvchi tal jihozlanmagan;
- yuqori byenfni loyqa qoplagan;
- ko'taruvchi vintlarning himoya qiluvchi po'stinlari yo'q;
- zatvorlar va ularning pazlardagi konstruksiyalari isitilmaydi.

Birlashgan kanal oxiridagi suv bo'lgich

- Sovet-yob kanali bosh inshootining quyi byefi qurilmagan;
- Sovet-yob kanali bosh inshootining mexanik jihozlari ishlaymaydi, biroq Suenli va Parallel kanallarining regulyatorlari juda ham eskirgan holatga kelib qolgan;

- kabelli kanallarning qopqoqlari buzilib ketgan;
- ko'taruvchi mexanizmlarning elektr jihozlari eskirgan;
- Suenli va Parallel kanallari regulyatorlarining risbermasida qiyalik qoplamalari qisman buzilgan;
- etakdagi o'chirib-yoqish moslamasi va DPZ yo'q;
- zatvorlar va ularning pazlardagi konstruksiyalari isitilmaydi.
- barcha zatvorlarning zichlagichlari buzilgan.

O'ng kirgokdagi suv bo'lgich-ikkilik

- risbermalarning qiyalik qoplamalari qisman buzilgan;
- mexanik jihozlar va ko'taruvchi mexanizmlarning elektr jihozlari eskirgan holatga kelib qolgan;
- ikkita to'rt oyoqli yuk ko'tarish qobiliyati 15 tk teng bo'lgan kran jihozlanmagan;
- zatvorlar korroziyaga uchragan;
- etakdagi o'chirib-yoqish moslamasi va DPZ yo'q;
- zatvorlar va ularning pazlardagi konstruksiyalari isitilmaydi.

Chap qirg'oqdagi Birlashgan kanal

- birlashgan kanal qurilishining PK0 dan PK 15 gacha bo'lgan qismi tugallanmagan, natijada GRES va Nukus shaxriga suv olish inshooti loyqa bilan qoplanib qolgan.

Marza dambalar

- qoniqarli axvolda faoliyat ko'rsatib turibdi.

Suvni olib keluvchi, olib ketuvchi o'zan va oqimni yo'naltiruvchi dambalar

- o'zanni loyqa bosgan;
- oqiziqalar o'tirib qolgan joylarni o'simliklar qoplagan;
- to'g'onga kirishda daryo kesimi toraygan.

TAVSIYA QILINADI:

- oldingi tekshiruv natijalari bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklarni to'liq bajarish;
- gidrouzel raxbariyatiga NO'A (nazorat o'lchov asboblari) bilan jixozlash loyixasi talab qilish va naturadi tekshirish ishlarini o'tkazish;
- temir yo'lda sostav o'tgan vaqtdagi beton to'g'on inshootlaridagi titrashni tekshirish va yo'l qo'yiladigin tezlikni aniqlash;
- zatvorlarni va qo'zg'olmas qismlarini isitish loyixasini ishlab chiqish va qurilish montaj ishlarini bajarish;
- gaz bilan qizdiriladigan va metallga yomon ta'sir qiladigan ishlarni ta'qiqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyakubov B. et al. Factors for the efficient use of water distribution facilities //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – Т. 883. – №. 1. – S. 012025.
2. Bazarov D. et al. Hydrodynamic effects of the flow on the slab of the stand in the presence of cavitation //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2021. – Т. 1030. – №. 1. – S. 012116.
3. Bazarov D. R. et al. Improving methods of increasing reliability without dam water intake //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2612. – №. 1.
4. Khidirov S. et al. Linked pools culverts facilities //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – Т. 883. – №. 1. – S. 012004.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» gi qonunni 1993 yil;
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gidrotexnika inshootlarining xafsizligi to‘g‘risidagi qonunni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘rsida”gi qorori. 16 noyabr 1999 yil, 499 son;
7. Bakiyev M.R., Nosirov B., Xo‘jaqulov R. Gidrotexnika inshootlari. T.: 2007. – 361 b.
8. Rozanov N.P., Bochkaryov Y.V., Lapshenkov V.S., Juravlyov G.I., Kaganov G.M., Rumyansev I.S. Gidrotexnicheskiye soorujeniY. Pod red. N.P.Rozanova – M:Agropromizdat, 1985.-451 s.
9. Volkov I.M., Kononenko P.F., Fedichkin I.K. Gidrotexnicheskiye soorujeniya M: Kolos, 1968. – 380 s.
10. Ungiboyevich M. S. Modeling Of The General Sciences Teaching System In Higher Education Institutions On The Basis Of Interdisciplinary Integration //Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – C. 76-79.
11. Ungiboyevich M. S. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim integratsiyasining nazariy asosi sifatida tizimli yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish//Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – C. 82-86.
12. Ungiboyevich M. S. Modeling Of The General Sciences Teaching System In Higher Education Institutions On The Basis Of Interdisciplinary Integration //Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – C. 76-79.
13. Ungiboyevich, Mustapakulov Sadik, and Boymuratov Farrukh Khamzayevich. "Development of Professional Competence of Students on the Basis of a Systematic Approach as the Theoretical Basis of Educational Integration in Higher Education Institutions." *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture* (2993-2637) 1.10 (2023): 295-298.
14. Ungiboyevich, Mustapaqulov Sodiq. ""Texnik mexanika” fanini o‘qitish jarayonida interfaol uslublarni qo‘llash." *Journal of new century innovations* 19.7 (2022): 11-14.